



**BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA AXBOROT
KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH ORQALI
FIKRLASH DOIRASINI O'STIRISH**

Abdullayeva Nargiza Roxataliyevna

Qo'qon DPI, "Boshlang'ich ta'lim nazariyasi" kafedrası o'qituvchisi

Muhammadaliyeva Diyora Dadajon qizi

Qo'qon DPI, "Boshlang'ich ta'lim" fakulteti 2-bosqich talabasi

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim tizimini axborotlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu borada, ta'limni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish yo'llari izlanmoqda, ta'limda yangi axborot texnologiyalarini joriy etish masalasi ommalashmoqda. Hozirda barcha ta'lim muassasalari zamonaviy kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlanmoqda. Bu esa, pedagoglarning o'z mehnat faoliyatiga yangicha yondashuvni talab etadi. O'quv jarayonida yangi axborot va pedagogik texnologiyalarning joriy etilishi o'qituvchini texnikaviy vositalar tomonidan siqib chiqarishga emas, balki o'qituvchilik faoliyatining murakkablashuviga olib keladi, o'qituvchining vazifalari va rolini o'zgartirib, ularni oshiradi. Vujudga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ta'limning axborot texnologiyalari etakchi o'rin tutmog'i lozim.

O'quvchilarning biror-bir sohani yoki predmetni faol egallashi uchun faqatgina nazariy bilim yetarli bo'lmasdan, balki masalani hal etish bo'yicha amaliy ko'nikmalar ham shakllangan bo'lishi kerak. Shuning uchun maktab darsliklari mavzusini faqatgina nazariy jihatdan emas, balki amaliy ko'rinishda, yani ko'rgazmali qurollar, harakatli tasvirlar orqali o'tish va o'quvchilar tasavvurlarini kengaytirish lozim. Umumta'lim maktablarining matematika kurslari mavzularini ham shu asosda o'tish, ayniqsa, boshlang'ich sinf matematika darsligi mavzulari axborot texnologiyalaridan foydalanib dars o'tish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to'g'risidagi" farmoni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da matematika o'qitishning sifatini oshirish bilan birga o'quvchilarning tafakkuri va shaxsiy sifatlarini, matematik savodxonliklarini shakllantirish hamda ijodiy qobiliyatlarini oshirish masalalari belgilab berilgan.

Boshlang'ich sinflarda ta'lim-tarbiya berish jarayonida axborot texnologiyalaridan, kompyuter vositalaridan foydalanish mumkin. O'quvchilarga boshlang'ich sinf matematika darslarida hozirgi kunda kompyuter vositasidan foydalanish metodikasi yo'q. Biz shu metodikani yaratishda yordam boladi degan nuqtayi nazardan (taysiyalardan) foydalanib, boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematika darslarida xo'jaligiga tadbqiqini singdirish, axborotli va algoritmik madaniyatini shakllantirish hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida boshlang'ich sinfdan boshlab o'quvchilarda axborotli madaniyatni shakllantirishga olib keladi.

Hozirgi kunda hech kimga sir emaski, bolalar yoshligidan kompyuter savodxonligini egallashga juda ham qiziqishadi. Shulardan foydalangan holda ularning axborot



madaniyatini shakllantirib borishimiz kerak. Ta'lim jarayonida kompyuterlar va telekommunikatsiya vositalarining qo'llanilishi o'quvchilarning ular bilan bemalol ishlay olishlariga pedagogik jarayondagi eng muhim kamchiliklardan biri hisoblangan subektivizmni cheklashga imkon yaratadi.

O'quvchining javobi yoki bevosita o'zlashtirishini baholash o'qituvchining o'quvchi shaxsiga munosabati ta'sirida kechgan bo'lsa, mashinalar vositasida beriladigan ma'lumotlar va o'quvchilar bilimini nazorat qilish hamda baholash ob'ektiv xarakterga ega bo'ladi.

Axborot texnologiyalari, Internet tizimi o'qituvchi va o'quvchilarning tobora qudratli va beminnat yordamchisiga aylanib bormoqda. Bugungi kunda o'qituvchi va o'quvchilar axborot texnologiyalari va Internetdan foydalanib, ma'lumotlar, ma'ruzalar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari ishlanmalari hamda metodik tavsiyalar bilan tanishish imkoniyatiga egadirlar. Fan va texnikaning tez sur'atlarda rivojlanishi, barcha fanlar qatori aniq fanlar mazmuniga, xususan, ularni o'qitish metodikasiga nisbatan yangicha talablarni qo'ymoqda. Aniq fanlar metodikasining asosiy maqsadlaridan biri, mazkur fanning rivojlanishini inobatga olgan holda, mazmunan yangilangan, zamonaviy axborot texnologiyalari keng joriy etilgan o'quvslubiy majmualarni yaratishdan iborat. Bugungi kunda o'quvchilar kompyuter texnologiyalari yordamida ilmiy-texnikaviy hisoblashlarni bajarishda, ilmiy-metodik izlanishlarni olib borishda bevosita Matematika, Maple, Mathcad, Matlab va shu kabi matematik dasturlardan foydalanmoqdalar. Bu dasturli vositalar o'quvchilarning katta hajmdagi matematik hisoblash ishlarini qisqartirishda, mavzularning mohiyatini chuqurroq tushunishlarida va o'zlashtirib olishlarida, shu bilan birga, ularning mustaqil ishlarini samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Natijada o'quvchilarning o'quv predmetiga, fanga bo'lgan qiziqishlari ortib bormoqda. Bu qiziqish Internet tizimiga murojaat etish imkoniyati cheklanishsiz mavjud bo'lganda ayniqsa kuchaymoqda. Internet tizimi imkoniyatlarining cheksizligi bu qiziqishlarni yanada kuchaytirmoqda. Hozirgi kunda Internet navigatsiyasini o'zlashtirib olgan o'quvchilar nafaqat o'zlariga zarur o'quv adabiyotini tezkorlikda topish, balki masofadan turib o'quv jarayonida ishtirok etish imkoniyatiga egadirlar.

Kompyuter — bugungi kunda axborotlarni olish va qayta ishlashning muhim vositasi bo'lib, uning tezkorligi tasavvurni lol qoldiradi. Shuning uchun ham bu vositalarning o'quv jarayoniga joriy etilishini hozirgi davrda tabiiy hol deb qarash joiz bo'ladi. Didaktik darslik bo'yicha qo'llanayotgan kompyuter jarayonlarini ma'lum tizimga solishiga urinib ko'raylik.

1. Multimediya texnologiyalar tufayli o'quvchilarda qiziqish va manfaatdorlik tug'diradi.

2. Fikrlash faoliyatini faollashtirib, o'tilgan materialni samarali o'zlashtirish imkonini beradi.

3. Amalda namoyish etilishi qiyin bo'lgan jarayonlarni modellashtirish va ko'rsata olish imkonini beradi.

4. Materialni o'rganish sur'ati bilan bir qatorda uni tushunish, anglash o'qitishni yakkayakka (individual) shaklda o'tkazish imkonini beradi.



O'qituvchi o'z mashg'uloti davomida o'quvchilarga ma'lum hajmdagi mashg'ulotlarni beribgina qolmay, ularda turli vositalardan, jumladan, kompyuterdan foydalanib, mustaqil ravishda boshqa ma'lumotlarni izlab topishga ishtiyoq tug'dirishni shakllantirishga erishishi lozim. O'quvchilarning mustaqil ravishda bilishga harakati yaxshi tashkil etilgan bo'lsa, mashg'ulot shuncha samarali va sifatli o'tadi. Kompyuter o'quvchilarni mustaqil ish olib borish imkoniyatini oshiradi, o'qituvchi esa o'tilgan materialni o'zlashtirish jarayonini turli shakllarda nazorat qilishi mumkin.

Bugungi kunda mana shunday imkoniyatlardan foydalanish, elektron ishlanmalar, elektron darsliklar yaratish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Agar bu vazifalarni hal etsak, natijada o'quvchilar bilimining saviyasini oshirish imkoniyatlari yanada oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rokhataliyevna, A. N., Qodiraliyevich, A. A., & Andrew, J. S. (2023). USING OF MODERN INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN MATHEMATICS LESSONS. Open Access Repository, 9(7), 57-61.
2. Abdullayev, A. Q., & Abdullayeva, N. R. UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA KREATIV FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH. МУ АЛЛИМ СЕЎМ ЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИ², 99.
3. Abdullayeva, N., & Abdullayev, A. (2023). МАТЕМАТИКА FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARINI O'RNI. Interpretation and researches, 1(8).
4. Абдуллаева, Н. Р. МАТЕМАТИКАНИ О'QITISHDA О'QUVCHILARNI KREATIV FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TAMOIYILLARI. "JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH" VOLUME 1, ISSUE 6, 119.
5. Makhrumovna, B. D. (2023). Methodical Views of Nizamiddin Mahmudov. World of Science: Journal on Modern Research Methodologies, 2(3), 149-154.
6. Kizilhan, P., & Dildora, B. (2023, June). LANGUAGE AND CULTURE: THE PROBLEM OF THE RELATION AND INTERACTION. In Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities (Vol. 2, No. 7, pp. 176-184).
7. Raxmankulova, N., & Mirzanazarova, S. (2022, January). DIDAKTIK OYINLAR-BILISHGA QIZIQISHNI UYGOTISH VOSITASI. In International journal of conference series on education and social sciences (Online) (Vol. 2, No. 1).